



**“TASDIQLAYMAN”**  
**“O‘ztransgaz” AJ**  
**Boshqaruv raisi v.b.**

A. Isakov

**“O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati Boshqaruvining kengaytirilgan yig‘ilish bayoni** 01-09/03 -son

2024-yil 23-yanvar

Toshkent sh.

**Raislik qildi:** A. Isakov – “O‘ztransgaz” AJ Boshqaruv raisi v.b.

**Qatnashdilar:** Boshqaruv raisining o‘rinbosarlari, departament va bo‘lim boshliqlari (*ro‘yxat bo‘yicha*)

#### **KUN TARTIBI:**

#### **“O‘ztransgaz” AJning 2024-yil I yarim yillik ish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida**

*(Isakov, Raxmonov, Safarov, Umarov, Toshpulatov, Baybaev,..., Isakov)*

Respublika iqtisodiyoti va aholisini tabiiy gaz bilan barqaror ta‘minlash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar, investitsiya loyihalari hamda “O‘ztransgaz” AJning 2023-yil II yarim yillik ish rejasini ijrosi yuzasidan hisobotlar va ularning natijalari tanqidiy tahlil qilindi.

“O‘zbekiston–2030” strategiyasini 2024-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish, belgilangan ustuvor vazifalarni 2024-yilning I yarim yilligida so‘zsiz bajarilishini ta‘minlash maqsadida **yig‘ilish qaror qiladi:**

1. 2023-yilning II yarim yillik ish rejasini ijrosi yuzasidan yo‘nalishlar bo‘yicha Boshqaruv raisi o‘rinbosarlarining hisobotlari ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. “O‘ztransgaz” AJning 2024-yil I yarim yillik uchun ish rejasini **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari – bosh muhandis (**Raxmonov**), “**Urganchtransgaz**” UK, MGQB va GYOSI rahbarlari **bir hafta muddatda** tarkibiy bo‘linmalarining ish rejalarini puxta ishlab chiqilishini, boshqaruv vertikal bo‘yicha tasdiqlanishini va ijrosini nazoratga olsin.

4. Boshqaruv raisining o‘rinbosarlari, barcha departament, bo‘lim, tarkibiy bo‘linma va tashkilotlar rahbarlari:

“O‘ztransgaz” AJning 2024-yil I yarim yillikka mo‘ljallangan ish rejasini talablariga qat‘iy rioya etilsin;

**doimiy va tizimli asosda** – “O‘ztransgaz” AJ va uning tizimidagi tashkilotlarda ijro intizomining holati tanqidiy o‘rganib chiqilishi ta‘minlansin;

2024-yil I yarim yillik ish rejasida belgilangan vazifa va topshiriqlar ijrosi yuzasidan tegishli ma‘lumotlarni elektron shaklda **har oy yakuni bilan** Axborot-tahliliy materiallarni jamlash va tayyorlash bo‘limiga taqdim qilib borsin;

“O‘ztransgaz” AJ ijroiya apparati hamda tarkibiy bo‘linma va tashkilotlarida **har chorak yakuni bilan** - birinchi rahbar huzurida 2024-yil I yarim yillik ish rejasining ijrosi yuzasidan muhokama tashkil etilsin, belgilangan topshiriqlar ijrosini o‘z vaqtida ta‘minlash choralari ko‘rilsin;

**2024-yil 5-iyulgacha** – 2024-yil I yarim yillik ish rejasining bajarilishi to‘g‘risidagi axborotni va **2024-yil II yarim yillik ish rejasi loyihasi yuzasidan takliflar** taqdim etsin.

**5.** Boshqaruv apparati bilan ishlash departamenti boshlig‘i (**M. Normatova**) ushbu bayonni barcha departament, tarkibiy bo‘linma va tashkilotlarga yetkazilishini hamda ijrosi ustidan qat‘iy nazorat o‘rnatilishini ta‘minlasin.

**6.** Mazkur bayon ijrosini nazorat qilishni o‘z zimnamda qoldiraman.

**Bayonnomani rasmiylashtirdi**



**M.Normatova**